
OGOHLIK DAVR TALABI



Soybo'yi mahalla fuqarolar yig'inida noqonuniy sha'riy nikoh hamda noqonuniy diniy saboq berish holatlarini oldini olish, mahallalarda hushyorlik va ogohlikni kuchaytirish, urf-odatlarimiz va milliy qadriyatlarimizni asrash, voyaga yetmaganlarni diniy saboq olish maqsadida noqonuniy ravishda Misr Arab Respublikasiga chiqib ketishini oldini olish, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga diniy tus berilishi, soxta g'oyalarni asl diniy qadriyatlar sifatida talqin qilinishi va aholi orasida nosog'lom aqida singdirilishini oldini olish, milliy va diniy qadriyatlarga hurmatni yanada oshirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish hamda jamiyatda "Jaholatga qarshi - ma'rifat" degan ulug'vor g'oya asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida davra suhbatlari o'tkazildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Qo'shTEPA tumani vakili S.Nuriddinov, Do'rmon masjidi imom-xatibi M.Oltmishev hamda mahalla faollari ishtirok etdilar.

QO'SHTEPA TUMANI HOKIMLIGI

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-07-03 15:24:08